Saparboyev Jamoladdin Yuldashevich,
Davletov Davronbek Egamberganovich,
Toxirova Malika

MATEMATIKADAN MISOL VA MASALALAR YECHISH METODIKASIDAN MASALALAR TO'PLAMI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

Saparboyev Jamoladdin Yuldashevich, Davletov Davronbek Egamberganovich,
Toxirova Malika

MATEMATIKADAN MISOL VA MASALALAR YECHISH METODIKASIDAN MASALALAR TO'PLAMI

(Metodik qo'llanma)

Qayta ishlangan va to'ldirilgan 2-nashr

Toshkent – 2019

Mázkur qo'llanma matematika o'qitish metodikasi yo'nalishiga matematikadan misol va masalalar yechish metodikasi fanidan amaliy mashg'ulotlarda foydalanish uchun tayyorlandi. Qo'llanmaning maqsadi talabalarning matematikadan olgan nazariy bilimlarini o'rta maktab matematikasi bilan bog'lash, ularda masala va misollar yechish malakasini takomillashtirish hamda rivojlantirishda iborat.

Qo'llanmadan, shuningdek, matematika o'qituvchilari va matematika bilan qiziqqanlar ham foydalanishlari mumkin. Qo'llanma amaldagi dasturga to'la mos bo'lib, mavzularga doir qisqacha nazariy ma'lumotlar hamda misol va masalalar keltirilgan.

Taqrizchilar:

To'raqulov N.– TTESI AL matematika o'qituvchisi

Raximov I. – Umumiy matematika kafedrasi katta o'qituvchisi

Ushbu qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU O'quv-uslubiy Kengashi yig'ilishining 2018- yil ______________dagi ___-raqamli qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

Kirish

«Matematikadan misol va masalalar yechish metodikasi» matematikaning fundamental bo'limlaridan bo'lib, uning poydevori hisoblanadi. Matematikadan misol va masalalar yechish metodikasi matematikaning turli bo'limlari (algebra, geometriya) asosida o'rganilib, hamda boshqa sohalarni (fizika, astronomiya va h.k.) o'rganishda, ularning masalalarini yechishda muhim ahamiyatga ega.

Ushbu uslubiy qo'llanma "Matematikadan misol va masalalar yechish metodikasi" fanining dasturiga mos yozilgan bo'lib, talabalarni matematikaning zaruriy ma'lumotlari majmuasi (tushunchalar, tasdiqlar va ularning isboti, amaliy masalalarni yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirish hamda matematika yo'nalishlarining uzviy bog'liqliklarini o'rganishga bag'ishlangan. Ayni paytda u talabalarni mantiqiy fikrlashga, to'g'ri xulosa chiqarishga, matematik madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Masalalar yechish jarayoni alohida didaktik funksiyani bajarishni ta'kidlash lozim. Qo'llanma talabalarga umumiy o'rta ta'lim maktab, akademik litsey qaralayotgan yechilishi murakkabroq matematik masalalarni, ularni yechish usullarini chuqurroq o`rgatish, talabalarda matematik masalalar yechish bo'yicha umumlashgan ko`nikma va malakalarni shakllantirish va rivojlantirishga yordam beradi.

1.Turli sanoq sistemalarida amallar bajarishga oid misollar yechish. Bo'linish belgilariga oid misollar yechish.

Sonlarni yozish usuliga sanoq sistemasi deb ataladi. Sonlarni yozish uchun har bir sanoq sistemasida o'ziga xos turli belgilar to'plamidan foydalaniladi. Foydalanilgan to'plamdagi belgilar ularning soni, sanoq sistemasini xarakterlovchi asosiy kattaliklardir. Sanoq sistemasida foydalaniladigan belgilar soni sanoq sistemasining asosini tashkil etadi. Berilgan sanoq sistemasida sonlarni yozishdagi foydalanilgan belgilar soniga qarab, o'nlik, ikkilik, sakkizlik, o'n oltilik va boshqa sanoq sistemalarni kiritish mumkin. Shu bilan birga sanoq sistemalarini *pozitsion* va *nopozitsion* turlarga ajratish mumkin. Pozitsion sanoq sistemasida berilgan sonning qiymati sonni tasvirlovchi raqamlarning egallagan o'rniga bog'liq bo'ladi. Misol sifatida, 0,1,2,3,. . . ,9 arab raqamlaridan tashkil topgan o'nlik sanoq sistemani qarash mumkin. Nopozitsion sanoq sistemalarida, belgining qiymati uning egallagan o'rniga bog'liq emas. Misol sifatida rim raqamlari sanoq sistemasini keltirish mumkin. Masalan, XX sonida X raqami, qayerda joylashganiga qaramasdan o'nlik sanoq sistemasidagi 10 qiymatini anglatadi. Quyidagi jadvalda o'nlik sanoq sistemasida berilgan 1 dan 16 gacha sonlarning ikkilik, sakkizlik va o'n oltilik sanoq sistemalaridagi ko'rinishi keltirilgan.

SANOQ SISTEMALARI							
2	**3**	**4**	**5**	**6**	**8**	**10**	**16**
0	0	0	0	0	0	0	0
1	1	1	1	1	1	1	1
10	2	2	2	2	2	2	2
11	10	3	3	3	3	3	3

100	11	10	4	4	4	4	4
101	12	11	10	5	5	5	5
110	20	12	11	10	6	6	6
111	21	13	12	11	7	7	7
1000	22	20	13	12	10	8	8
1001	100	21	14	13	11	9	9
1010	101	22	20	14	12	10	?
1011	102	23	21	15	13	11	?
1100	110	30	22	20	14	12	?
1101	111	31	23	21	15	13	?
1110	112	32	24	22	16	14	?
1111	120	33	30	23	17	15	F
10000	121	100	31	24	20	16	10

Bu jadval bo'yicha bir sanoq sistamasidan ikkinchisiga o'tish masalasini ko'rib o'taylik. Masalan: 10 lik sanoq sistemasidagi 13 soniga 8 lik sanoq sistemasida 15 soni mos keladi va u 13 ni 8 ga bo'linganda hosil bo'lgan butun son 1 va qoldiq 5 lardan tashkil topgan. Xuddi shuningdek 13 ni 6 ga bo'lganda hosil bo'luvchi butun son 2 va qoldiq 1 lar 21 sonini hosil qiladi. Bu son 13 sonining 6 lik sanoq sistemasidagi qiymatidir.

Odatda biror X sonining qaysi sanoq sistemasiga tegishliligini ko'rsatish uchun uning pastida indeks sifatida zarur sanoq sistemasining asosi ko'rsatiladi. Masalan, X_6 – X sonining 6 lik sanoq sitemasiga tegishli ekanligini ko'rsatadi.



X_{10}=13 sonining X_2-ikkilik sanoq sistemasidagi ko'rinishini topaylik. Yuqoridagidek, 13 ni ketma-ket 2 ga bo'lamiz va bo'lishni to butun qismida nol hosil bo'lguncha davom ettiramiz. O'ngdan chapga tartibida yozilgan qoldiqlar, ya'ni 1101 soni $X_{10}=13_{10}$ sonining ikkilik sanoq sistemasidagi ko'rinishi bo'ladi.



Endi 8 lik sanoq sistemasidan 10 lik sanoq sistemasiga bo'lish yo'li bilan o'tishga doir *misol*lar ko'raylik. Masalan, jadval bo'yicha 15_8 ga 13_{10} mos keladi. Endi uni topib kuraylik, buning uchun 15_8 ni 10 lik sanoq sistemasining asosi–10 ning 8 lik sanoq sistemasidagi ko'rinish – 12 ga bo'lish kerak bo'ladi. 158 ni 128 ga bo'lsa butun qismida 1 va qoldiqda 3, ya'ni 13_{10} – hosil bo'ladi. Bunga jadval orqali ishonch hosil qilish ham mumkin.

Ikkinchi *misol*: 175_8 sonini 10 lik sanoq sistemasidagi ko'rinishini topish talab qilingan bo'lsin. Xuddi yuqoridagidek 175_8 ni 12_8 ga ketma-ket bo'lamiz. Eslatib o'tamiz, bo'lish amali 8 sonlik sanoq sistemasida olib boriladi.

R sanoq sistemasida berilgan sonni Q sanoq sistemasiga o'tkazish uchun, R sanoq sistemasidagi X soni Q sanoq sistemasining asosiga, ya'ni Q ga ketma-ket, to butun qismida 0 hosil bo'lguncha davom ettirish kerak. Qoldiqlar o'ngdan chapga karab ketma-ket yozilsa, R sanoq sistemasida berilgan Xr sonining Q sanoq sistemasidagi Xq ko'rinishi hosil bo'ladi. Bo'lish amali berilgan R sanoq sistemasida amalga oshiriladi.

Ba'zi bir sanoq sistemalaridan ikkinchisiga qulayroq, osonroq holda o'tish imkoniyatlari mavjud. Xususiy holda, 2 ga karrali sonlarning biridan 2 ikkinchisiga o'tish qoidasini ko'rib o'tamiz.

Masalan, 8 lik sanoq sistemasida berilgan X_8=5361 sonidan X_2 ga bo'lish uchun, X_8 ning har bir raqamini 2 likdagi ko'rinishi-triadalar (2^3=8) bilan almashtirib chiqamiz:

$$X_2 = \underbrace{101}_{5}\,\underbrace{011}_{3}\,\underbrace{110}_{6}\,\underbrace{001}_{1}$$

D8A2$_{16}$ni 2 lik sanoq sistemasiga o'tkazish uchun uning har bir raqamini 2 lik sanoq sistemasidagi to'rtliklar-tetradalar bilan

almashtiramiz:

$$X_2 = \underbrace{1101}_{D}\,\underbrace{1000}_{8}\,\underbrace{1010}_{A}\,\underbrace{0010}_{2}$$

Ikkilik sanoq sistemasida berilgan sondan 8 lik sanoq sistemasiga o'tish uchun, uning o'ng tomonidan boshlab har bir uchliklarni (triadalarni) 8 likdagi mos raqamlar bilan almashtiramiz. Masalan

$$X_2 = \underbrace{001}_{1}\,\underbrace{010}_{2}\,\underbrace{010}_{2}\,\underbrace{101}_{5} = 1225_8$$

Yuqoridagi X_2 sonini 16 lik sanoq sistemasiga o'tkazish uchun X_2 ni o'ng tomondan boshlab to'rtliklar (tetradalar) bilan almashtiramiz.

$$X_2 = \underbrace{0010}_{2}\,\underbrace{1001}_{9}\,\underbrace{0101}_{5} = 295_8$$

Endi, ixtiyoriy sanoq sistemasidan o'nlik sanoq sistemasiga o'tishning xususiy qoidasini ko'rib o'tamiz.

Sakkizlik sanoq sistemasida berilgan sonning 175_8o'nlik sanoq sistemasidagi ko‘rinishini X_{10} topish talab etilsin. Buning uchun berilgan sonning 8 lik sanoq sistemasidagi yoyilmasini yozib olamiz.

$$X_8 = 175_8 = (1 \cdot 10^2 + 7 \cdot 10^1 + 5 \cdot 10^0)_8$$

va 8 lik sanoq sistemasida $10_8 = 8$ ekanligini hisobga olib topamiz.

$$X_8 = (1 \cdot 8^2 + 7 \cdot 8^1 + 5 \cdot 8^0) = (64 + 56 + 5)_{10} = 125_{10}$$

Xuddi yuqoridagilardek, quyidagi *misol*larni ham qurish mumkin:

$$X_{16} = AB_{16} = (A \cdot 10^1 + B \cdot 10^0)_{16} = (10 \cdot 16^1 + 11 \cdot 16^0)_{10} = (160 + 11)_{10} = 171_{10}$$
$$X_6 = 154_6 = (1 \cdot 10^2 + 5 \cdot 10^1 + 4 \cdot 10^0)_6 = (1 \cdot 6^2 + 5 \cdot 6^1 + 4 \cdot 6^0)_{10} = 70_{10}$$

Shu paytgacha biz butun sonlarni bir sanoq sistemasidan boshqasiga o‘tkazish bilan shug‘ullandik. Kasr sonlarni bir sanoq sistemasidan ikkinchisiga o‘tkazish uchun, uning butun qismi yuqorida keltirilgan qoida, ya’ni bo‘lish asosida amalga oshiriladi. Kasr qismini R sanoq sistemasidan Q sanoq sistemasiga o‘tkazish uchun kasr sonni Q ga ketma-ket ko‘paytirishda hosil bo‘lgan sonning butun kismlari ketma-ketligi, berilgan son kasr qismining Q sanoq sistemasidagi ko‘rinishini hosil qiladi. Misol sifatida o‘nlik sanoq sistemasida berilgan X_{10}=25,205 sonini 8 lik sanoq sistemasiga o‘tkazaylik. Berilgan sonning butun qismi- 25_{10} sakkizlik sanoq sistemasida 41_8 ga teng. Endi kasr qismi 0,205 ni 8 lik sanoq sistemasiga o‘tkazamiz. Buning uchun uni ketma-ket 8 ga ko‘paytiramiz va hosil bo‘lgan butun qismini chiziqning chap tomoniga o‘tkazamiz.

0	0.205 8
1	0,640 8
5	0,040 8
0	0,320 8
2	0,560

0,205 ni 8 ga ko‘paytirganimizda 1,640 hosil bo‘ladi va uning butun qismini chiziqning chap tomoniga o‘tkazamiz. Keyin 0,640 yana 8 ga ko‘paytiramiz va hosil bo‘lgan 5,040 sonining butun qismini chiziqning chap tomoniga o‘tkazamiz.

Ko'paytirishni shu tarzda davom ettiramiz natijada 0,15028 sonini hosil qilamiz va butun qismini 41_8 ni hisobga olib, berilgan X_{10}=25,205 sonini 8 lik sanoq sistemasidagi ko'rinishini topamiz:

O'nlik sanoq sistemadan ikkilikga , sakkizlikga, o'n oltilikga o'tkazish.

Butun o'nlik sonni ikkilik sanoq sistemaga o'tkazish uchun berilgan soni ikkiga bo'lib birinchi qoldiq topiladi.qeyin bo'linmani yana ikkiga bo'lib ikkinchi qoldiq va shu tariqa bo'lish jarayoni ikkidan kichik bo'lgan birinchi qoldikgacha davom etadi va bu qoldiq sonning ikkilik sanoq sistemaga o'tgan eng kata raqamini aniqlaydi, teskari tartibda yozilgan qoldiqlar esa ikkilik sonning qolgan razryadlarini aniqlaydi. Shu tartibda butun sonni sakkizlikga,o'n oltilikka o'tkaziladi. Bu xolatlarda sonni sakkiz va o'n oltiga bo'lish zarur bo'ladi.

To'g'ri kasrni boshqa sanoq sistemaga o'tkazish quyidagicha amalga oshiriladi: Sonning kasr qismini yangi sanoq sistema asosiga ko'paytiriladi, Hosil bo'lgan kasr qismining katta xonasini beradi, ko'paytmaning kasr qismini yana yangi sanoq sistema asosiga ko'paytirish kerak. Hosil bo'lgan ko'paytmaning butun qismi qidirilayotgan son kasr qismining keyingi xonasini beradi. Shu tariqa jarayon kasr sonning butun qismining *p* raqami topilguncha takrorlanaveradi. Natija raqamlarni yuqoridan pastga qarab o'qish orqali olinadi.

1- Misol: 98_{10} sonni ikkili sanoq sistemasiga quydagicha o'tkaziladi.



Javob: $98_{10} = 1100010_2$

2-Misol : 0,41 o‘nli soni ikkilik sanoq sistemasiga quyidagicha o‘tkaziladi.

0,41
× 2
0,82
× 2
1,64
× 2
1,28
× 2
0,56
× 2
1,12
× 2
0,24
× 2
0,48

$0{,}41_{10} = 0{,}0110100_2$

3-Misol: 118 o‘nlik soni sakkizlik sanoq sistemasiga quyidagicha o‘tkaziladi.



$1\ 1\ 8_{10} = 1\ 6\ 6_8$

4-misol. O'nlik sanoq sistemasida berilgan 54 sonini ikkilik sanoq sistemasiga o'tkazing.

Yechilishi:

54 | 2   Javob: $54 = 110110_2$

54   27 | 2

0   26   13 | 2

1   12   6 | 2

1   6   3 | 2

0   2   1

1

5 – misol. $111101100111_2 = X_{10}$; X=?

Buning uchun 111'101'100'111 ga ajratib jadvaldan foydalanamiz.

$111_2=7_{10}$

$100_2=4_{10}$

$101_2= 5_{10}$

$111_2= 7_{10}$

Demak, $111101100111_2=7547_{10}$

6 – misol. O'nlik sanoq sistemasida berilgan $875_{(10)}$ sonini o'n oltilik sanoq sistemasiga o'tkazing.

Yechilishi:

875 | 16

864   54 | 16

11   48   3

6

Demak, $875_{(10)}=36B_{(16)}$

Kasr sonlarni bir sanoq sistemasidan ikkinchisiga o'tkazish uchun, berilgan sonni o'tkaziladigan sanoq sistemasining asosiga ko'paytiramiz. Natijada hosil bo'lgan butun sonlar o'tkaziladigan sanoq sistemasidagi songa teng bo'ladi.

7 – misol. O'nlik sanoq sistemasida berilgan $0,624_{(10)}$ sonini ikkilik sanoq sistemasiga o'tkazing.

Yechilishi:

0, 624 x 2=

1| 248 x 2=

0| 946 x 2=

0| 992...

Demak, $0,624_{(10)}=0,100_{(2)}$

8– misol. O'nlik sanoq sistemasida berilgan 0,546 sonini sakkizlik sanoq sistemasiga o'tkazing.

Yechilishi:

0, 546 x 8 =

4 | 368 x 8=

2 | 944 x 8=

7 | 552...

Demak, $0,546_{(10)}=0,427_{(8)}$

9 – misol. O'nlik sanoq sistemasida berilgan 0,29 sonini o'n oltilik sanoq sistemasiga o'utkazing.

Yechilishi:

4 | 64 x 16=

1 | 0,29 x 16=

0 | 24 x 16=

3 | 84 ...

Demak, $0{,}29_{(10)}=0{,}4A3_{(16)}$

Sakkizlik sanoq sistemasida berilgan sonni ikkilik sanoq sistemasiga o'tkazish uchun har bir sakkizlik son unga ekvivalent bo'lgan uchta ikkilik son (triada)ga almashtiriladi

10 – misol. Sakkizlik sanoq sistemasida berilgan $50721{,}621_{(8)}$ sonini ikkilik sanoq sistemasiga o'tkazing.

Yechilishi:

5 0 7 2 1, 6 2 $1_{(8)}$

| | | | | | | |

101 000 111 010 001, 110 010 $001_{(2)}$

Demak, $50721{,}621_{(8)}$=101 000 111 010 001,110 010 $001_{(2)}$

Ikkilik sanoq sistemasida berilgan sonni sakkizlik sanoq sistemasiga o'tkazish uchun har bir uchta ikkilik son (triada) unga ekvivalent bo'lgan bitta sakkizlik songa almashtiriladi Aralash sonlarda (noto'g'ri kasrlarda) triada uchun sonlar yetishmasa, unung chap (butun qismining oldini) va o'ng (kasr qismining oxirini) tomonlarini nollar bilan to'ldiramiz.

11–misol. Ikkilik sanoq sistemasida berilgan

$1110111010100101{,}1101110010_{(2)}$ sonini sakkizlik sanoq sistemasiga o'tkazing.

Yechilishi:

Triadaga to'ldirilgan nollar

001 110 111 010 100 101 , 110 111 001 $000_{(2)}$

| | | | | | | | | |

1 6 7 2 4 5 , 6 7 1 $0_{(8)}$

Demak, $1110111010100101{,}1101110010_{(2)}=167245{,}6710_{(8)}$

[illegible] kasrni ikkilik sanoq sistemasiga o'tkazish uchun har bir o'n oltilik son unga ekvivalent bo'lgan to'rtta ikkilik son (tetradaga) almashtiriladi.

12-misol. O'n oltilik sanoq sistemasida berilgan $15S,16D_{(16)}$ sonini ikkilik sanoq sistemasiga o'tkazing.

Yechilishi:

1 5 C , 1 6 $D_{(16)}$

| | | | | |

0001 0101 1100, 0001 0110 $1101_{(2)}$

Demak, $15S,16D_{(16)}=101011100,000101101101_{(2)}$

Ikkilik sanoq sistemasida berilgan noto'g'ri kasrni o'n oltilik sanoq sistemasiga o'tkazish uchun har bir (o'n oltilik songa ekvivalent bo'lgan) to'rtta ikkilik son (tetrada) unga ekvivalent bo'lgan bitta o'n oltilik songa almashtiriladi. Agar berilgan sonlarda tetrada uchun sonlar yetishmasa, uning chap (butun qismining oldini) va o'ng (kasr qismining oxirini) tomonlarini nollar bilan to'ldiramiz.

13-misol. Ikkilik sanoq sistemasida berilgan $10111111000111,111100101_{(2)}$ sonini o'n oltilik sanoq sistemasiga o'tkazing.

0010 1111 1100 0111, 1111 0010 $1000_{(2)}$

| | | | | | |

2 F C 7, F 2 $8_{(16)}$

Demak, $10111111000111,111100101_{(2)}=2FC7,F28_{(16)}$

Har qanday sanoq sistemasida berilgan sonni o'nli sanoq sistemasiga o'tkazish uchun yuqorida aytib o'tilgan polinomdan foydalanamiz. Masalan,

$175,61_{(8)}=1\cdot 8^2+7\cdot 8^1+5\cdot 8^0+6\cdot 8^{-1}+1\cdot 8^{-2}==64+56+5+0,75+0,015625=125,765625_{(10)}$

$1101,11_{(2)}=1\cdot 2^3+1\cdot 2^2+0\cdot 2^1+1\cdot 2^0+1\cdot 2^{-1}+1\cdot 2^{-2}= =8+4+0+1+0,5+0,25=13,75_{(10)}$

$A1F,96_{(16)}=10\cdot16^{2}+1\cdot16^{1}+15\cdot16^{0}+9\cdot16^{-1}+6\cdot16^{-2}$

$==2560+16+1+0,625+0,0234375=2591,6484_{(10)}$

Mashqlar

1. Ikkilik sanoq sistemasida berilgan sonlar ustida qo'shish amalini bajaring.

a) 101+111	b) 1011+110	g) 10,101+11,111
c) 1101+110	d) 1010+1111	h) 110,01+11,0101
e) 1111+1011	f) 11,011+101,01	i) 111,01+111

2. Ikkilik sanoq sistemasida berilgan sonlar ustida ayirish amalini bajaring.

a) 1010-110	b) 1110-101	g) 10101-111,11
c) 11011,11-101,01	d) 1011-11,11	h) 110,01-11,0101
e) 10010,01-111,1	f) 11011-101,01	i) 1000,01-111

3. Ikkilik sanoq sistemasida berilgan sonlar ustida ko'paytirish amalini bajaring.

a) 101×110	b) 110×101	g) 101×11
c) 1101×10,01	d) 1011,01×101	h) 110,01×1,101
e) 10010,01×111,1	f) 111×11,101	i) 10101×101,011

2. Bajarilgan amallardan qaysi biri noto'g'ri?

a) 101-11=11	b) 111010+10=111100
d) 11100+11=100111	e) 11×11=1001
f) 1001-11=100	g) 11111×1010=100110110
h) 110011,001-1,011=111110,1	i) 1110,01+1,01=111110
j) 11001,1-110,11=10010,11	k) 101×1110=10101100
l) 100,101-1,010=11,011	m) 110100-1101=100

5. O'tkazishni bajaring:

a) $101111101_2\rightarrow?_{10}$ b) $1110000_2\rightarrow?_{10}$ c) $6317_{10}\rightarrow?_2$

d) $1190_{10}\to ?_2$ e) $909_{10}\to ?_2$ f) $1236_{10}\to ?_2$

g) $11011_{10}\to ?_2$ h) $11011_2\to ?_{10}$ i) $101011011_2\to ?_{10}$

j) $6702_{10}\to A_8\to A_2\to A_{16}$ k) $1101110_2 > \to A16\to A8$,

6.Amallarni bajaring.

a)6508+638, b)111112+1012, c) 1A9B16+52C316, в)CEA16-9EC16.

2.Qoldiqli bo`lish. EKUB va EKUK. Arifmetikaning asosiy teoremasi. Natural sonlarning kanonik yoyilmasi.

Butun sonlarning bo'linishi deganda biz qoldiqli va qoldiqsiz bo'lishni tushunamiz.

a va b butun sonlar berilgan bo'lsin. Agar ularning birini ikkinchisiga bo'lsak, $a=bq+r;\ 0\le r<b$ hosil bo'ladi, bu yerda a - bo'linuvchi, b - bo'luvchi, q - bo'linma, r - qoldiq deyiladi. Agar $r\ne 0$ bo'lsa, qoldiqli bo'lishga, agar $r=0$ bo'lsa, qoldiqsiz bo'lishga ega bo'lamiz. 2, 3, 4, 5, 9, 10 ga bo'linish belgilari (alomatlari) mavjud bo'lib, ulardan masala yoki misollarni yechishda foydalaniladi.

a sonni q ga bo'lganda r_1 qoldiq, b ni q ga bo'lganda r_2 qoldiq qolib, $r_1=r_2$ bo'lsa, u holda a va b sonlar teng qoldiqli sonlar deb ataladi.

Bizga $a,b\in Z$ sonlar berilgan bo'lsa,

$$(a+b)^2=a^2+2ab+b^2=aA_2+b^2;\ A_2=a+2b,$$

$$(a+b)^3=aA_3+b^3,\ \ (a+b)^4=aA_4+b^4,\ldots$$

tengliklardan $(a+b)^n=aA_n+b^n$ ni yoza olamiz.

Agar $b=1$ bo'lsa, $(a+1)^n=aA_n+1$,

agar $n=2k,\ b=-1$ bo'lsa, $(a-1)^n=aA_n+1$, agar $n=2k+1,\ b=-1$ bo'lsa, $(a-1)^n=aA_n-1$ larni hosil qilamiz.

1-teorema. *Agar a son b ga qoldiqsiz bo'linib,* $|b|>|a|$ *bo'lsa, u holda* $a=0$ *bo'ladi.*

2-teorema. *a butun sonning b songa qoldiqsiz bo'linishi uchun* $|a|\ \vdots\ |b|$ *bo'lishi zarur va yetarlidir.*

3-teorema. *Agar* $a_i\ \vdots\ b,\ i=\overline{1,n},\ a_i\in N$ *bo'lsa, u holda*

$\sum_{i=1}^{n} a_i \vdots b$ bo'ladi.

1-misol. 5^{10} ni 4 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.

Yechish. $5^{10} = (4+1)^{10} = 4A_{10}+1$, demak, qoldiq $r=1$ bo'lar ekan.

2-misol. $(3^{198}-7^{17})$ ayirmani 2 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.

Yechish. $3^{198}-7^{17} = (2+1)^{198}-(6+1)^{17} = 2A_{198}+1-6A_{17}-1 = 2A_{198}-6A_{17}$, bundan qoldiq $r=0$ ga teng ekani kelib chiqadi.

1-masala. Yig'indini 7 ga bo'lgandagi qoldiqni toping 1995 + 1996 + 1997 + 1998 + 1999

Yechish.

1995 = 7•285, unda 1995≡0 (mod 7), demak, 1995 + 1996 + 1997 + 1998 + 1999≡0 + 1 + 2 + 3 + 4 = 10≡3 (mod 7).

Qoldiq 3 ga teng.

2-masala. Ko'paytmani 7 ga bo'lgandagi qoldiqni toping. 1995•1996•1997•1998•1999.

Yechish. 1995≡0 (mod 7), unda 1995•1996•1997•1998•1999≡0•1•2•3•4=0(mod 7).

Qoldiq 0 ga teng ekan.

3-masala. Ko'paytmani 7 ga bo'lgandagi qoldiqni toping. 1996•1997•1998•1999•2000•2001.

Yechish. 1996•1997•1998•1999•2000•2001≡ 1•2•3•4•5•6 = 720≡20≡6 (mod 7).

Qoldiq 7 ga teng.

1•2•3•4, 1•2•3•4•5, 1•2•3•4•5•6, . . . ko'rinishdagi ko'paytmalar tez-tez uchrab turadi.

Ular 1•2•3•4=4!, 1•2•3•4•5=5! Ko'rinishda yoziladi. O'qilishi: 4-faktorial, 5-faktorial va h.k. Umuman, 1•2•3•...•n = n! (n-faktorial).

Ta'kidlash lozimki, berilgan sonni 10 ga bo'lgandagi qoldiq shu sonning oxirgi raqamidir.

Masalan. $21\equiv 1 \pmod{10}$, $134\equiv 4 \pmod{10}$.

Talabalarga oxirgi raqamni topishga doir masalalarni yechishda quyidagi foydali "jadvalni" tavsiya qilish mumkin:

$1^k\equiv 1 \pmod{10}$	$5^k\equiv 5 \pmod{10}$	$6^k\equiv 6 \pmod{10}$	
$4^{2k}\equiv 6 \pmod{10}$	$4^{2k+1}\equiv 4 \pmod{10}$	$9^{2k}\equiv 1 \pmod{10}$	$9^{2k+1}\equiv 9 \pmod{10}$
$2^{4k}\equiv 6 \pmod{10}$	$3^{4k}\equiv 1 \pmod{10}$	$7^{4k}\equiv 1 \pmod{10}$	$8^{4k}\equiv 6 \pmod{10}$
$2^{4k+1}\equiv 2 \pmod{10}$	$3^{4k+1}\equiv 3 \pmod{10}$	$7^{4k+1}\equiv 7 \pmod{10}$	$8^{4k+1}\equiv 8 \pmod{10}$
$2^{4k+2}\equiv 4 \pmod{10}$	$3^{4k+2}\equiv 9 \pmod{10}$	$7^{4k+2}\equiv 9 \pmod{10}$	$8^{4k+2}\equiv 4 \pmod{10}$
$2^{4k+3}\equiv 8 \pmod{10}$	$3^{4k+3}\equiv 7 \pmod{10}$	$7^{4k+3}\equiv 3 \pmod{10}$	$8^{4k+3}\equiv 2 \pmod{10}$

Misollarda bu taqqoslamalardan kelib chiqadigan xulosalarni ko'rish mumkin:

$7\equiv 7 \pmod{10}$;

$7^2 = 49\equiv 9 \pmod{10}$;

$7^3 = 7^2\cdot 7\equiv 9\cdot 7 = 63\equiv 3 \pmod{10}$;

$7^4 = 7^3\cdot 7\equiv 3\cdot 7 = 21\equiv 1 \pmod{10}$.

Bularni davom ettirsak qoldiqlar takrorlanadi: 7 sonining 4 ga karrali darajalarida qoldiq 1; 7 ning 4 ga bo'lganda 1 qoldiq qoladigan darajalarida qoldiq 7; 7 ning 4 ga bo'lganda 2 qoldiq qoladigan darajalarida qoldiq 9; 7 ning 4 ga bo'lganda 3 qoldiq qoladigan darajalarida qoldiq 3.

Masala – 1. 137^{100} ning oxirgi raqamini toping?

Yechilishi. $137\equiv 7 \pmod{10}$, $137^{100}\equiv 7^{100} = 7^{25\cdot 4}\equiv 1 \pmod{10}$ larni yozish mumkin.

Oxirgi raqami 1 ekan.

Masala – 2. Quyidagi sonlarning oxirgi raqamlarini toping: 7^7, 77^{77}, 2^{100}, 3^{1999}, 19^{100}, 1999^{1999}.

Yechilishi.

$7^7 = 7^{4\cdot 1+3}\equiv 3 \pmod{10}$,

$77^{77}\equiv 7^{77} = 7^{4\cdot 19+1}\equiv 7 \pmod{10}$,

$2^{100} = 2^{4\cdot25} \equiv 6 \pmod{10}$,

$3^{1999} = 3^{4\cdot499+3} \equiv 7 \pmod{10}$,

$19^{100} \equiv 9^{100} \equiv 1 \pmod{10}$.

$1999^{1999} \equiv 9^{1999} \equiv 9 \pmod{10}$.

Demak, mos ravishda oxirgi raqamlari 3, 7, 6, 7, 1, 9 bo'lar ekan.

Masala – 3.

a) $1998^{1998} + 1999^{1999}$ yig'indini 3 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.
b) $1998^{1998} + 1999^{1999}$ yig'indining oxirgi raqamini toping.

Yechilishi.

a) $1998^{1998} + 1999^{1999} \equiv 0^{1998} + 1^{1999} = 0 + 1 \equiv 1 \pmod 3$. Қолдиқ 1 га тенг экан.
б) $1998^{1998} + 1999^{1999} \equiv 8^{1998} + 9^{1999} = 8^{4\cdot499+2} + 9^{2\cdot999+1} \equiv 4 + 9 = 13 \equiv 3 \pmod{10}$.

Oxirgi raqami 3 ekan.

Boshqacharoq misollar ko'raylik.

Masala – 4. $n^3 - n$ ifoda n ning barcha natural qiymatlarida 6 ga bo'linishini isbotlang.

Yechilishi. Tasdiqning to'g'riligini n ning ba'zi qiymatlarida tekshirib ko'raylik. Masalan,

$n = 1$ da $1^3 - 1 = 0 \vdots 6$,

$n = 2$ da $2^3 - 2 = 8 - 2 = 6 \vdots 6$,

$n = 10$ da $10^3 - 10 = 1000 - 10 = 990 \vdots 6$.

Endi tasdiqni isbotlaymiz. Sonni 6 ga bo'lganda qolishi mumkin bo'lgan qoldiqlar: 0, 1, 2, 3, 4, 5.

U holda

$n \equiv 0 \pmod 6$, bundan $n^3 - n = 0^3 - 0 = 0 \pmod 6$,

$n \equiv 1 \pmod 6$, bundan $n^3 - n = 1^3 - 1 = 0 \pmod 6$,

$n \equiv 2 \pmod 6$, bundan $n^3 - n = 2^3 - 2 = 6 \equiv 0 \pmod 6$,

$n \equiv 3 \pmod 6$, bundan $n^3 - n = 3^3 - 3 = 24 \equiv 0 \pmod 6$,

$n \equiv 4 \pmod 6$, bundan $n^3 - n = 4^3 - 4 = 60 \equiv 0 \pmod 6$,

$n \equiv 5 \pmod 6$, bundan $n^3 - n = 5^3 - 5 = 120 \equiv 0 \pmod 6$.

Bulardan $n^3 - n$ ifoda n ning ixtiyoriy natural qiymatida 6 ga bo'linar ekan

Masala – 5. $n^2 + 3n$ ko'rinishdagi sonni 7 ga bo'lganda qolishi mumkin bo'lgan barcha qoldiqlarni yozing.

Yechilishi. 7 ga bo'lganda 0, 1, 2, 3, 4, 5, 6 qoldiq bo'lishi mumkin. U holda:

$n \equiv 0 \pmod 7$, $n^2 + 3n = 0^2 + 3 \cdot 0 = 0 \pmod 7$,

$n \equiv 1 \pmod 7$, $n^2 + 3n = 1^2 + 3 \cdot 1 = 4 \pmod 7$,

$n \equiv 2 \pmod 7$, $n^2 + 3n = 2^2 + 3 \cdot 2 = 10 \equiv 3 \pmod 7$,

$n \equiv 3 \pmod 7$, $n^2 + 3n = 3^2 + 3 \cdot 3 = 18 \equiv 4 \pmod 7$,

$n \equiv 4 \pmod 7$, $n^2 + 3n = 4^2 + 3 \cdot 4 = 16 + 12 = 28 \equiv 0 \pmod 7$,

$n \equiv 5 \pmod 7$, $n^2 + 3n = 5^2 + 3 \cdot 5 = 25 + 15 = 40 \equiv 5 \pmod 7$,

$n \equiv 6 \pmod 7$, $n^2 + 3n = 6^2 + 3 \cdot 6 = 36 + 18 = 54 \equiv 5 \pmod 7$.

Qolishi mumkin bo'lgan qoldiqlar: 0, 3, 4, 5.

Mustaqil yechish uchun taklif qilinadigan misollar:

1. Oxirgi raqamni toping:

a) $11^6 + 14^5 + 16^6$;

b) $11 \cdot 13 \cdot 15 \cdot 17 \cdot 19$.

2. 4 ga bo'lgandagi qoldiqni toping:

a) $11^6 + 14^5 + 16^6$;

б) $11 \cdot 13 \cdot 15 \cdot 17 \cdot 19$.

3. $n^3 + 2n$ ifoda n ning ixtiyoriy natural qiymatida 3 ga bo'linishini isbotlang.

Yechilishi.

1.

a) $11^6 + 14^5 + 16^6 \equiv 1^6 + 4^5 + 6^6 \equiv 1 + 6 + 6 = 13 \equiv 3 \pmod{10}$;

б) $11 \cdot 13 \cdot 15 \cdot 17 \cdot 19 = 1 \cdot 3 \cdot 5 \cdot 7 \cdot 9 \equiv 5 \pmod{10}$.

2.

а) $11^6 + 14^6 + 16^6 \equiv 3^6 + 2^6 + 0^6 = 3^4 \cdot 3^2 + 64 \equiv 1 \cdot 9 + 0 = 9 \equiv 1 \pmod 4$;

б) $11 \cdot 13 \cdot 15 \cdot 17 \cdot 19 \equiv 3 \cdot 1 \cdot 3 \cdot 1 \cdot 3 = 27 \equiv 3 \pmod 4$.

3.

$n \equiv 0 \pmod 3$, $n^3 + 2n \equiv 0^3 + 2 \cdot 0 \equiv 0 \pmod 3$,

$n \equiv 1 \pmod 3$, $n^3 + 2n \equiv 1^3 + 2 \cdot 1 = 3 \equiv 0 \pmod 3$,

$n \equiv 2 \pmod 3$, $n^3 + 2n \equiv 2^3 + 2 \cdot 2 = 8 + 4 = 12 \equiv 0 \pmod 3$.

Bulardan ko'rinadiki, $n^3 + 2n$ ifoda n ning ixtiyoriy natural qiymatida 3 ga bo'linar ekan.

Talabalarning bilimini tekshirish uchun misollar.

Variant 1 Variant 2

Oxirgi raqamni toping:

1.	666^{666}	
2.	1999^{1998}	
3.	5!	

1.	444^{444}	
2.	9991^{8991}	
3.	6!	

Bo'lishdagi qoldiqni toping:

4.	13n+5 ni	13	
5.	20n+23 ni	4	

4.	29n+5 ni	29	
5.	20n+23 ni	5	

Talabalar bu misollarga javob yozib topshirishadi. Bularni o'qituvchi tekshirguncha talabalar quyidagi misollarni yechib turishadi.

Variant 1

$1998^{1999} + 1999^{1998}$ ni 9 ga bo'lgandagi qoldiqni toping.

Bu son 3 ga to'linadimi? Aks holda 3 ga bo'lgandagi qoldiqni toping?

Variant 2

$1998^{1999} + 1999^{1998}$ ning oxirgi raqamini toping.

Bu son 5 ga bo'linadimi? 2ga-chi?

Umumiy fikrlarni birlashtirib ba'zi misollarni yechamiz.

1. $n(n+1) \vdots 2$ ni isbotlang.

I usul.

$n \equiv 0 \pmod 2$, $n(n+1) \equiv 0(0+1) = 0 \pmod 2$;
$n \equiv 1 \pmod 2$, $n(n+1) \equiv 1(1+1) = 2 \equiv 2 \pmod 2$.

II usul. Ikkita ketma-ket kelgan natural sonlardan n va $(n+1)$ bittasi aniq juft, bundan, ularning ko'paytmasi $n(n+1)$ juft ekanini kelib chiqadi.

2. $n(n+1)(n+2) \vdots 3$ ni isbotlang.

Ikkita talaba yuqoridagi usullarda isbotlashadi. O'qituvchi bu misollarga analog misollar tuzishni topshiradi. Talabalar javobi:

Quyidagilarni isbotlang:

$n(n+1)(n+2)(n+3) \vdots 4$;

$n(n+1)(n+2)(n+3)(n+4) \vdots 5$;

$n(n+1)(n+2)(n+3)(n+4)(n+5) \vdots 6$.

Oxirida umumlashtirsak: $n(n+1)(n+2)...(n+m) \vdots (m+1)$.

Xulosa o'rnida $n(n+1) \vdots 2$ va $n(n+1)(n+2) \vdots 3$, 2 va 3 – o'zaro tub sonlar, demak, $n(n+1)(n+2) \vdots 1 \cdot 2 \cdot 3 = 3! = 6$.

$n(n+1)(n+2)(n+3) \vdots 4! = 24$ ni isbotlang.

$n(n+1)(n+2)(n+4) \vdots 5!$ ni isbotlang;

$n(n+1)(n+2)(n+3)(n+4)(n+5) \vdots 6!$ ni isbotlang.

Mustaqil yechish uchun

1. Yig'indining oxirgi raqamini toping:

a) $1^2 + 2^2 + ... + 10^2$;

б) $1^2 + 2^2 + ... + 100^2$.

2. Isbotlang:

а) $n^2 + n \vdots 2$;

б) $n^2 - n \vdots 2$.

3. Toq sonning kvadratini 8 ga bo‘lganda 1 qoldiq qolishini isbotlang.

4. Ikkita ketma-ket natural sonlarning kvadratlari yig‘indisini 4 gu bo‘lganda 1 qoldiq qolishini isbotlang.

Yechilishi.

1.

а) $1^2 + 2^2 + 3^2 + 4^2 + 5^2 + 6^2 + 7^2 + 8^2 + 9^2 + 10^2 = 1 + 4 + 9 + 16 + 25 + 36 + 49 + 64 + 81 + 100 \equiv$

$\equiv 1 + 4 + 9 + 6 + 5 + 6 + 9 + 4 + 1 + 0 = 45 \equiv 5 \pmod{10}$. Охирги рақам 5.

б) $1^2 + 2^2 + .. + 100^2 \equiv 5 \cdot 10 = 50 \equiv 100 \pmod{10}$. Охирги рақам 0.

2.

а) $n \equiv 0 \pmod 2$, $n^2 + n \equiv 0^2 + 0 = \pmod 2$, $n \equiv 1 \pmod 2$, $n^2 + n \equiv 1^2 + 1 = 2 \equiv 0 \pmod 2$.

б) Mustaqil isbotlang.

3. $(2n + 1)^2 \equiv 1 \pmod 8$ ni isbotlang. Quyidagilarni yozamiz:

$n \equiv 0 \pmod 8$, $(2 \cdot 0 + 1)^2 = 1 \equiv 1 \pmod 8$,

$n \equiv 1 \pmod 8$, $(2 \cdot 1 + 1)^2 = 9 \equiv 1 \pmod 8$,

$n \equiv 2 \pmod 8$, $(2 \cdot 2 + 1)^2 = 25 \equiv 1 \pmod 8$,

$n \equiv 3 \pmod 8$, $(2 \cdot 3 + 1)^2 = 49 \equiv 1 \pmod 8$,

$n \equiv 4 \pmod 8$, $(2 \cdot 4 + 1)^2 = 81 \equiv 1 \pmod 8$,

$n \equiv 5 \pmod 8$, $(2 \cdot 5 + 1)^2 = 121 \equiv 1 \pmod 8$,

$n \equiv 6 \pmod 8$, $(2 \cdot 6 + 1)^2 = 169 \equiv 1 \pmod 8$,

$n \equiv 7 \pmod 8$, $(2 \cdot 7 + 1)^2 = 225 \equiv 1 \pmod 8$.

4. Quyidagi sistemani natural qiymatlarda yeching.

$$\begin{cases} x+y=150, \\ D(x,y)=30; \end{cases} \begin{cases} D(x,y)=45, \\ x:y=11:7; \end{cases} \begin{cases} xy=8400, \\ D(x,y)=20; \end{cases}$$

$$\begin{cases} x:y=5:9, \\ D(x,y)=28; \end{cases} \begin{cases} xy=20, \\ K(x,y)=10. \end{cases}$$

3.Butun koeffitsiyentli aniqmas tenglamalarga oid misollar yechish.

Ta'rif. Tarkibida bittadan ortiq o'zgaruvchisi bor tenglama aniqmas tenglama deyiladi.

Ta'rif. Birinchi tartibli ikki x, y o'zgaruvchili aniqmas tenglama $mx + ny = k$, bunda $m, n, k, x, y \in Z$ $k \neq 0$ ko'rinishda bo'ladi.

Tasdiq 1. Agar $mx + ny = k$ tenglamadagi ozod had k m va n larning EKUB iga bo'linmasa, u holda $mx + ny = k$ tenglama butun yechimga ega emas.

Misol: 34x – 17y = 3.

(34; 17) = 17, 3 soni 17 ga bo'linmaydi, demak, tenglamaning butun yechimi yo'q.

Tasdiq 2.

Agar $mx + ny = k$ tenglamada m va n lar o'zaro tub bo'lsa, u holda tenglama kamida bitta yechimga ega.

Tasdiq 3.

Agar $mx + ny = k$ tenglamada m va n lar o'zaro tub bo'lsa, u holda tenglama cheksiz ko'p yechimga ega.

$\begin{cases} x = x_1 + nt, \\ y = y_1 - mt \end{cases}$ bunda $(x_1; y_1)$ – juftlik $mx + ny = k$ tenglamaning biror yechimi.

$t \in Z$

Misollar. 1) 9x – 18y = 5

(9;18)=9

5 soni 9 ga bo'linmaydi. Demak, tenglamaning butun yechimi yo'q.

2) $x + y = xy$

Tanlash orqali ham yechish mumkin.

Javob: (0;0), (2;2)

Tenglamani butun sonlarda yeching $3x - 4y = 1$.

$3x = 4y + 1$ ko'rinishda yozsak. Bu tenglamaning chap tomoni 3 ga bo'linadi, bundan o'ng tomoni ham bo'linishini yozaylik. Uchta hol bo'lishi mumkin:

1. Agar $y = 3m$, $m \in Z$, u holda $4y + 1 = 4 \cdot 3m + 1 = 12m + 1$ ifoda 3 ga bo'linmaydi.
2. Agar $y = 3m + 1$, u holda $4y + 1 = 4 \cdot (3m + 1) + 1 = 12m + 5$ ifoda 3 ga bo'linmaydi.
3. Agar $y = 3m + 2$, u holda $4y + 1 = 4 \cdot (3m + 2) + 1 = 12m + 9$ ifoda 3 ga bo'linadi, shuning uchun ham $3x = 12m + 9$ dan $x = 4m + 3$ kelib chiqadi, bundan $y = 3m + 2$ bo'ladi.

Javob: $\begin{cases} x = 4m+3, \\ y = 3m+2 \end{cases}$, bunda $m \in Z$.

2-darajali aniqmas tenglama

Barcha tipdagi bunday tenglamalarni kvadrat lar ayirmasi yoki ko'paytuvchilarga ajratish yo'li bilan yechiladi.

Misol: Tenglamani butun sonlarda yeching.

$x^2 - 4y^2 = 13$

$(x - 2y)(x + 2y) = 13$

13 – tub son, shuning uchun ham: $13 = 13 \cdot 1 = 1 \cdot 13 = (-1)(-13) = (-13)(-1)$ hollarnigina qarash mumkin

Bu hollarni qarab chiqamiz:

а) $\begin{cases} x-2y=-13, \\ x+2y=1 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_1=7 \\ y_1=-3 \end{cases}$

б) $\begin{cases} x-2y=1, \\ x=2y=13 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_2=7 \\ y_2=3 \end{cases}$

в) $\begin{cases} x-2y=-13, \\ x+2y=-1 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_3=-7 \\ y_3=3 \end{cases}$

г) $\begin{cases} x-2y=-1, \\ x+2y=-13 \end{cases} \Rightarrow \begin{cases} x_4=-7 \\ y_4=-3 \end{cases}$

Javob: (7;-3), (7;3), (-7;3), (-7;-3).

Misol. Tenglamani butun sonlarda yeching:

a) $x^2-y^2=4$

(x - y)(x + y)=4

$\begin{cases} x-y=2 \\ x+y=2 \end{cases}$	$\begin{cases} x-y=1 \\ x+y=4 \end{cases}$	$\begin{cases} x-y=4 \\ x+y=1 \end{cases}$
2x = 4	2x = 5	2x = 5
x = 2	x = 5/2	x = 5/2
y = 0	butunmas	butunmas
$\begin{cases} x-y=-2 \\ x+y=-2 \end{cases}$	$\begin{cases} x-y=-1 \\ x+y=-4 \end{cases}$	$\begin{cases} x-y=-4 \\ x+y=-1 \end{cases}$
2x = -4	butunmas	butunmas
x = -2		
y = 0		

Javob: (-2;0), (2;0).

b) $x^2+xy=10$

Javob: (-10;9), (-5;3), (-2;-3), (-1;-9), (1;9), (2;3), (5;-3), (10;-9).

в) $(x+y)(y-1)=4$

Javob: (2;-3), (-1;-1), (-4;0), (2;2), (-1;3), (-4;5).

Mashqlar.

1) Butun sonlarda yeching.

а) $8x + 12y = 32$	$x = 1 + 3n,\ y = 2 - 2n,\ n \in Z$
б) $7x + 5y = 29$	$x = 2 + 5n,\ y = 3 - 7n,\ n \in Z$
в) $4x + 7y = 75$	$x = 3 + 7n,\ y = 9 - 4n,\ n \in Z$
г) $9x - 2y = 1$	$x = 1 - 2m,\ y = 4 + 9m,\ m \in Z$
д) $9x - 11y = 36$	$x = 4 + 11n,\ y = 9n,\ n \in Z$
е) $7x - 4y = 29$	$x = 3 + 4n,\ y = -2 + 7n,\ n \in Z$
ж) $19x - 5y = 119$	$x = 1 + 5p,\ y = -20 + 19p,\ p \in Z$
з) $28x - 40y = 60$	$x = 45 + 10t,\ y = 30 + 7t,\ t \in Z$

2) Tenglamaning nomanfiy butun yechimlarini toping:

а) $8x + 65y = 81$	$x = 2,\ y = 1$
б) $17x + 23y = 183$	$x = 4,\ y = 5$

3) Quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi barcha (x; y) juftliklarni toping

а) $x + y = xy$	(0;0), (2;2)
б) $x^2 - 3xy + 2y^2 = 3$	(1;2), (5;2), (-1;-1), (-5;-2)

Yechilishi:

$x^2 - 2xy + y^2 - xy + y^2 = 3$
$(x - y)^2 - y(x - y) = 3$
$(x - y)(x - 2y) = 3$

3 sonini ko'paytuvchilarga ajratsak,:

$3 = 1 \cdot 3 = 3 \cdot 1 = (-1) \cdot (-3) = (-3) \cdot (-1)$

а) $\begin{cases} x-y=1 \\ x-2y=3 \end{cases}$ $\begin{cases} y=-2 \\ x=-1 \end{cases}$	б) $\begin{cases} x-y=3 \\ x-2y=1 \end{cases}$ $\begin{cases} y=2 \\ x=5 \end{cases}$	в) $\begin{cases} x-y=-1 \\ x-2y=-3 \end{cases}$ $\begin{cases} y=2 \\ x=1 \end{cases}$	г) $\begin{cases} x-y=-3 \\ x-2y=-1 \end{cases}$ $\begin{cases} y=-2 \\ x=-5 \end{cases}$

Javob: (-1; -2), (5; 2), (1;2), (-5; -2).

в) $x^3+23=y^2$	(11;12), (-11;-12), (-11;12), (11;-12)
г) $x^2-48=y^2$	(24;23), (24;-23), (-24;-23), (-24;23)
д) $x(y^2+1)=48$	(48;0), (24;1), (24;-1)
е) $y=\frac{2}{3}x$	$x = 3m; y = 2m, m \in Z$
ж) $y = 2x - 1$	$x = m; y = 2m - 1, m \in Z$
з) $x^2=4y^2$	$x = 2m; y = m; x = 2m; y = -m, m \in Z$
и) $x^2=2y^2$	Yechimi yo'q

4) Tenglamani butun sonlarda yeching

$(x-y)(x-1)=4$	(-3;-2), (-1;1), (0;4), (2;-2), (3;1), (5;4)
$(x - 3)(xy + 5) = 5$	(-2;3), (2;-5), (4;0)
$(y + 1)(xy - 1)=3$	(0;-4), (1;-2), (1;2)
$x^2-2xy-3y^2=5$	(-4;-1), (-2;1), (2;-1), (4;1)
$x^2+23=y^2$	(-11;-12), (-11;12), (11;-12), (11;12)
$x^2-47=y^2$	(-24;23), (-24;23), (24;-23), (24;23)

5) Tenglamani butun sonlarda yeching.

a) $(x+1)^2+y^2=0$	(-1;0)
b) $x^2-10x+25+y^2=0$	(5;0)
c) $x^2-4x+y^2+2y+5=0$	(2;-1)
d) $x^2+5y^2+4xy+2y+1=0$	(2; -1)

Quyidagi tenglamalarni butun sonlar to‘plamida yeching.

1. $143x+169y=5$

2. $237x+44y=1$

3. $275x+145y=10$

4. $3x+8y=5$

5. $2x+5y=7$

6. $5x+28y=59$

7. $12x+7y=41$

8. $12x-7y=29$

9. $8x+3y=63$

10. $7x-19y=23$

11. $9x-22y=10$

12. $122x+129y=2$

13. $26x+34y=13$

14. $258x-172y=56$

15. $70x+33y=1$

16. $45x-37y=25$

17. $60x-91y=2$

18. 289. 440 kg donni tashish uchun 60kg va 80kg li qoplar mavjud. Shu donni tashish uchun har bir hil qopdan nechtadan olingan?

19. Kinoteatrga tushish uchun 14900 so‘mga 300 va 500 so‘mlik biletlardan sotib olindi. Har bir xil biletdan nechtadan sotib olingan?

Mustaqil yechish uchun tenglamalar

1. $y^2-xy-2x^2-13=0$

2. $y^2-x^2+3=0$

3. $x^2+xy-5=0$

4. $x^2-2xy-3y^2+11=0$

5. $4y^2-x^2+5=0$

6. $x^2 - xy - 2x^2 - 13 = 0$

7. $x^2 - 2x - y^2 - 2 = 0$

8. $y^2 - 2y - 4x^2 + 4 = 0$

9. $x^2 + 2x - y^2 - 2y + 3 = 0$

10. $x^2 + 2x + 2(x + 1)y - 3y^2 + 4 = 0$

11. $x^2 - xy - y - 4 = 0$

12. $x^2 - xy + 2x + 2 = 0$

13. $y^2 - xy + x + 1 = 0$

14. $xy - 2x^2 + 5x - 2y - 3 = 0$

15. $3xy - x^2 + 3x - 6y = 3$

16. $2x^2 - 3xy + 4x - 3y = 0$

17. $x^2 + xy - 5x + 2y + 5 = 0$

18. $2y^2 + 2xy - 3y - 2x = 0$

19. $x^2 + xy - x - y - 7 = 0$

20. $xy - 2y^2 + x - 2y - 5 = 0$

21. $x^2 + a^2 + 2x - 2a + 2 = 0$

22. $x^2 + a^2 - 4x + 2a + 5 = 0$

23. $2x^2 + 2a^2 + 12x + 8a + 26 = 0$

24. $2x^2 + 2a^2 - 2x + 6a + 5 = 0$

25. $4x^2 + 4a^2 - 8x - 4a + 5 = 0$

26. $x^2 + a^2 - 6x - 2a + 10 = 0$

27. $x^2 + a^2 - 10x + 4a + 29 = 0$

28. $3x^2 + 3a^2 - 12x - 12a + 24 = 0$

29. $4x^2 + 4a^2 - 8x + 32a + 68 = 0$

30. $2x^2 + 2a^2 - 12x - 12a + 36 = 0$

31. 440 kg donni tashish uchun 60 kg va 80 kg li qoplar mavjud. Shu donni tashish uchun har bir xil qopdan nechtadan olingan?

32. Kinoteatrga tushish uchun 14900 so'mga 300 va 500 so'mlik biletlardan sotib olindi. Har bir xil biletdan nechtadan sotib olingan?

4.Ratsional sonlar ustida amallarga oid misollar yechish.

1. $\left(1-\frac{1}{2}\right)\left(1-\frac{1}{3}\right)\cdots\left(1-\frac{1}{n+1}\right)=$
2. $1\cdot 4+2\cdot 7+3\cdot 10+\cdots+n\cdot(3n+1)=$
3. $\left(1-\frac{1}{4}\right)\left(1-\frac{1}{9}\right)\left(1-\frac{1}{16}\right)\cdots\left(1-\frac{1}{(n+1)^2}\right)=$
4. $1\cdot 1!+2\cdot 2!+3\cdot 3!+\cdots n\cdot n!=$
5. $\frac{0}{1!}+\frac{1}{2!}+\frac{2}{3!}+\cdots+\frac{n-1}{n!}=$
6. $\frac{1^2}{1\cdot 3}+\frac{2^2}{3\cdot 5}+\cdots+\frac{n^2}{(2n-1)\cdot(2n+1)}=$
7. $\frac{1}{1\cdot 3\cdot 5}+\frac{2}{3\cdot 5\cdot 7}+\cdots+\frac{n}{(2n-1)\cdot(2n+1)\cdot(2n+3)}=$
8. $\frac{1}{1\cdot 2\cdot 3}+\frac{1}{2\cdot 3\cdot 4}+\cdots+\frac{1}{n(n+1)\cdot(n+2)}=$
9. $1\cdot 2\cdot 3+2\cdot 3\cdot 4+\cdots+n\cdot(n+1)(n+2)=$
10. $2\cdot 1^2+3\cdot 2^2+\cdots+(n+1)\cdot n^2=$
11. $\frac{1}{1\cdot 2\cdot 3\cdot 4}+\frac{1}{2\cdot 3\cdot 4\cdot 5}+\cdots+\frac{1}{n(n+1)(n+2)(n+3)}=$
12. $\left(1-\frac{4}{1}\right)\left(1-\frac{4}{9}\right)\left(1-\frac{4}{25}\right)\cdot\cdot\left(1-\frac{4}{(2n-1)^2}\right)=$
13. $\frac{2^3-1}{2^3+1}\cdot\frac{3^3-1}{3^3+1}\cdot\frac{4^3-1}{4^3+1}\cdot\ldots\cdot\frac{(n+1)^3-1}{(n+1)^3+1}$
14. $2^{20}-2^{19}-2^{18}-\cdots-2-1$
15. $\frac{1}{2!}+\frac{2}{3!}+\cdots+\frac{n}{(n+1)!}=$

Yig'indini hisoblang.

1. $S_n=\frac{1}{1\cdot 3}+\frac{1}{3\cdot 5}+\cdots+\frac{1}{(2n-1)(2n+1)}$
2. $S_n=\frac{1}{1\cdot 4}+\frac{1}{4\cdot 7}+\cdots+\frac{1}{(3n-1)(3n+1)}$
3. $S_n=\frac{1}{1\cdot 5}+\frac{1}{5\cdot 9}+\cdots+\frac{1}{(4n-3)(4n+1)}$
4. $S_n=\frac{1}{1\cdot 6}+\frac{1}{6\cdot 11}+\cdots+\frac{1}{(5n-4)(5n+1)}$
5. $S_n=1^2-2^2+3^2-4^2+\cdots+(-1)^{n-1}n^2.$

5. Irratsional sonlarga oid misollar yechish. Haqiqiy sonlar ustida amallar.

Tengliklarni isbotlang.

1. a) $\sqrt{9-4\sqrt{5}}+\sqrt{14-6\sqrt{5}}=1$

b) $\sqrt{11-4\sqrt{7}}+\sqrt{16-6\sqrt{7}}=1$

c) $\sqrt{19-8\sqrt{3}}-\sqrt{7-4\sqrt{3}}=2$

d) $\sqrt{18-8\sqrt{2}}-\sqrt{6-4\sqrt{2}}=2$

2. $\dfrac{\sqrt{\sqrt[4]{8}-\sqrt{\sqrt{2}-1}}}{\sqrt{\sqrt[4]{8}+\sqrt{\sqrt{2}-1}}-\sqrt{\sqrt[4]{8}-\sqrt{\sqrt{2}-1}}}=\dfrac{1}{\sqrt{2}}$

3. $\sqrt[3]{26+15\sqrt{3}}(2-\sqrt{3})=1$

4. $\dfrac{2\sqrt[3]{2}}{1+\sqrt{3}}=\dfrac{\sqrt[3]{20+12\sqrt{3}}}{2+\sqrt{3}}$.

5. $\dfrac{\sqrt{5-2\sqrt{6}}\cdot(5+2\sqrt{6})(49-20\sqrt{6})}{\sqrt{27}-3\sqrt{18}+3\sqrt{12}-\sqrt{8}}=1$

6. $\left(\dfrac{6+4\sqrt{2}}{\sqrt{2}+\sqrt{6+4\sqrt{2}}}+\dfrac{6-4\sqrt{2}}{\sqrt{2}-\sqrt{6-4\sqrt{2}}}\right)^2=8$

7. $\left(\dfrac{3}{\sqrt[3]{64}-\sqrt[3]{25}}+\dfrac{\sqrt[3]{40}}{\sqrt[3]{8}+\sqrt[3]{5}}-\dfrac{10}{\sqrt[3]{25}}\right)^{-1}\cdot(13-4\sqrt[3]{5}-2\sqrt[3]{25})+\sqrt[3]{25}=4$

8. $\sqrt[3]{6+\sqrt{\dfrac{847}{27}}}+\sqrt[3]{6-\sqrt{\dfrac{847}{27}}}=3$

